

**AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI VA GEOSIYOSIY QARASHLARI  
QISQACHA TAHLILI**

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.005>

*Yusupova X.M.*

*Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi,*

*Qo'yinova Z.*

*Renessans ta'lim universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning diplomatik faoliyati va geosiyosiy qarashlari qisqacha tahlil qilinadi. Unda Sohibqironning harbiy qudratni diplomatiya bilan uyg'unlashtirgani, Sharq va G'arb davlatlari bilan keng ko'lamli elchilik aloqalarini yo'lga qo'ygani hamda xalqaro siyosiy maydondagi nufuzini mustahkamlagani yoritiladi. Shuningdek, Temur davrida shakllangan davlatlararo munosabatlar, elchilar almashinuvi va savdo aloqalarining rivojlanishi asosida uning geosiyosiy tafakkuri tahlil qilinadi. Maqolada Amir Temur merosining keyingi tarixiy davrlarda ham ahamiyatini saqlab qolganligi va uning diplomatik yondashuvlari bugungi xalqaro munosabatlar tizimini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida qaralishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, diplomatiya, geosiyosat, Temuriylar davri, elchilik munosabatlari, xalqaro aloqalar, Sharq va G'arb, strategiya, davlat boshqaruvi, tarixiy meros.

### **Kirish**

Markaziy Osiyo tarixida buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida tanilgan Amir Temur jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Uning siyosiy faoliyati nafaqat harbiy yurishlar, balki puxta ishlab chiqilgan diplomatik strategiyalar va chuqur geosiyosiy qarashlar bilan ham ajralib turadi.

Sohibqiron o'z davlat boshqaruvida tartib va intizomni asosiy tamoyil sifatida ko'rgan. U shunday degan edi: *“Har bir ishning ibtidosi tartib va intizomdadir”* (“Temur tuzuklari”, 1991. — 37-bet). Bu fikr uning davlat boshqaruvi falsafasini to'liq ifodalaydi.

### **Asosiy qism**

Amir Temur diplomatiyasining eng muhim jihati — kuch va aql-idrokni uyg'unlashtirishdir. U harbiy qudratga tayangan holda o'z davlatining hududiy va siyosiy ta'sirini kengaytirgan, shu bilan birga diplomatik aloqalarni ham yuqori darajada rivojlantirgan. U turli davlatlar bilan elchilik munosabatlarini yo'lga qo'yib, xalqaro siyosiy maydonda o'z o'rnini mustahkamladi. Temur davrida Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalar sezilarli darajada faollashdi. Yevropa hukmdorlari bilan yozishmalar, elchilar almashinuvi va savdo-sotiq aloqalari uning xalqaro nufuzini yanada oshirdi.

Sohibqiron Amir Temurning xorij mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari keng qamrovli bo'lib, bu sulolaning taraqqiyoti muhim o'rin tutgan edi. Xususan, ta'rixiy manbalarda Amir Temur 1402 yil 28 iyulda Anqara jangida Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III elchisiga Frantsiya qiroli Filipp de Savo Mayorga yozgan xatida Angliya elchisi bilan ham tilga olingan. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida ular bilan birga ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

O'sha davrda Amir Temurning shuhrati butun Yevropaga tarqalgan edi. Shu sababli Muhammad Keshiy Kastiliya Qiroli Don Enrike III huzurida katta hurmat-e'tibor bilan kutib olinadi. U Qirol saroyidagi va yirik zodagonlar qasridagi qabullarda ishtirok etadi. Qirol unga Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi o'z Elchilarini qo'shib, hurmat-ehtirom bilan Samarqandga kuzatib qo'yadi.

Klavixoning so'zlariga ko'ra, Temurning Ispaniya delegatsiyasiga nisbatan yaxshi munosabat bildirgan. Bavariyalik sayyoh Iogann Shiltberger 1402-yildan 1405-yilgacha Amir Temur xizmatida qolganligi ma'lum. Shuningdek, ko'plab venetsiyalik va Amir Temurdan keyingi munosabatlar Genuyalik savdogarlar ham o'sha vaqtlar tashqi aloqalarida faol edilar. Yevropa va Temuriylar o'rtasidagi keyingi aloqalar venetsiyalik sayyoh Nikkolo da Kontining 1420-1425-yillar oralig'idagi aloqalari bo'ladi. Ispaniyaning sharq bilan yaqinlashishga bo'lgan istagi 1492-yilda Xristofor Kolumb davriga qadar davom etgan bo'lsada, aloqalar bundan keyin avvalgidek rivojlana olmadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Mustafa Kamol Otaturk ham Amir Temur shaxsiyatini chuqur o'rgangan va uni o'z davrining buyuk siyosiy arbobi, kuchli strateg va yetakchi sifatida baholagan. Bu esa Temurning nafaqat Sharq, balki G'arb siyosiy tafakkuriga ham ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Otaturk Amir Temurning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganib, uni o'z davrining yirik siyosiy arbobi, harbiy strateg va yuksak maqsadlarga erishgan lider sifatida tasvirlaydi.

Temur Yevropa chegaralariga yaqinlashganida, Yevropaning ko'plab qirollari va hukmdorlari uni turklarning buyuk xoqoni sifatida tan olganlar, unga chuqur hurmat bajo keltirib, maxsus elchilar yuborganlar hamda maktublar orqali o'z ehtiromlarini izhor etganlar. Bu holat Otaturk nazarida Amir Temurning nafaqat harbiy qudratini, balki xalqaro miqyosdagi siyosiy nufuzini ham yaqqol ko'rsatadi.

Amir Temur g'arbiy Osiyo mamlakatlari bilan ham diplomat aloqalarni ham yo'lga qo'ygan edi. Chunki, bu o'lkalar ijtimoiy-iqtisodiy va ma'daniy jihatdan muhim edi. Temuriylar bo'yicha olimi Ubaydullo Uvatovning yozishicha: "Amir Temur va Sulton Barquq o'rtasidagi rasmiy aloqalar 1385-yildan boshlangan. Nisbatan qisqa vaqt ichida, ya'ni 1386-yildan 1405-yilgacha bo'lgan davrda, Amir Temur hamda Misr sultonlari — Barquq va Faraj, shuningdek ularning Suriyadagi noiblari o'rtasida taxminan 25 marotaba maktublar almashinuvi va elchilik tashriflari amalga oshirilgan."

Tarixchi Elimov Lochinning ilmiy izlanishida keltirishicha, XIV asr oxirida yuzaga kelgan o'ziga xos xalqaro vaziyat tufayli Usmonli Turkiya, Amir Temur davlati hamda Misr Osiyoda, qisman Afrikada va Yevropaning ayrim hududlarida siyosiy qudratli davlatlar sifatida maydonga chiqdi.

1382-yilda Misrda Sulton az-Zohir Barquq hokimiyat tepasiga keldi. U Amir Temurning Qora Yusuf bilan bo'lgan harbiy harakatlarida bevosita ishtirok etgan edi.

1388-yil oxirida Amir Temur qo'shinlari Tabrizdan chekinganida, Qora Yusuf Misr sultoni Barquqqa maktub yo'llab, Tabrizda uning nomi bilan pul zarb etilayotganini, masjidlarda uning nomi xutbalarda o'qilayotganini bildirgan hamda undan Tabrizda sultonning noibi etib tayinlashini so'ragan.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida Amir Temurning boy tarixiy merosini o'rganish va targ'ib etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Sohibqiron merosini keng tadqiq etish, uni yosh avlodga yetkazish va tarixiy ongni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, joriy 2026-yilda "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biridir. Ushbu qaror asosida ilmiy tadqiqotlar, konferensiyalar, tarixiy asarlar nashri va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar keng yo'lga qo'yilmoqda.

Shuningdek, Temuriylar davri tarixini chuqur o'rganish orqali yosh avlodga vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy ongni shakllantirish maqsad qilingan. Bu esa Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot strategiyasida muhim o'rin tutadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning diplomatik faoliyati va geosiyosiy qarashlari uning faqat kuchli sarkarda emas, balki chuqur strategik tafakkurga ega davlat arbobi bo'lganini yaqqol ko'rsatadi. U harbiy qudratni diplomatiya bilan uyg'unlashtirib, o'z davrida keng hududlarni yagona siyosiy tizim ostida birlashtira olgan.

Temur davrida Sharq va G'arb davlatlari o'rtasida elchilik aloqalari kuchaygan, savdo va madaniy almashinuvlar rivojlangan. Bu esa uning xalqaro munosabatlarga katta e'tibor berganini va geosiyosiy muvozanatni chuqur tushunganini isbotlaydi. Uning diplomatik siyosati nafaqat o'z saltanatining mustahkamlanishiga, balki Yevropa va Osiyo o'rtasidagi aloqalarning faollashishiga ham xizmat qilgan.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev davrida Amir Temur merosiga bo'lgan e'tibor kuchayib, uning tarixiy o'rni qayta baholanmoqda. Bu esa Temuriylar davlatchilik an'analarini o'rganish orqali yosh avlodga vatanparvarlik, milliy g'urur va tarixiy ongni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Amir Temurning diplomatiyasi va geosiyosiy qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, u zamonaviy davlat boshqaruvi va xalqaro munosabatlar uchun muhim tarixiy maktab vazifasini bajaradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidov A. Moziydan sado // Xalq so'zi gazetasi. – 2026. – 28-mart. – № 60 (9231).
2. Mamajonov X.X. Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi // FarDU ilmiy xabarlar. – 2025. – 31-jild, 4-son.
3. Tetik A., Seven A., Gürler M. Turk tarixi yozuvlari. – Ankara: Bosh shtab Harbiy tarix va strategik tadqiqotlar boshqarmasi nashrlari, 2008. – 54-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: "Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida" // Lex.uz. – 2026. – <https://lex.uz/doc-passport/-8036449> (murojaat sanasi: 01.04.2026).
5. Eshov B. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
6. Uvatov U. Amir Temur and Mamluklar // Oriental Studies. – Tashkent, 1996. – №7. – B. 60–72.
7. Elimov L. On the History of Amir Temur's Diplomatic Relations with the Egyptian Sultans // A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. – 2020. – B. 78–81.
8. "Ibn Khaldun in Egypt" Walter F. Fischel (<https://books.google.com/books?id=UP69Cm3kdCUC&pg=PA106>) Books.google.com — 106 bet.
9. González de Clavijo, Ruy; Estrada, Francisco López (1999), Embajada a Tamorlán (<https://books.google.com/books?id=rAuDt2JHh6gC&pg=PA19>).
10. Raximov B. E., Tashmuradov U. M. Amir Temur va Temuriylar davrida tashqi diplomatik aloqalarning davlat siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyati // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2025. – №3(5). – B. 53–57.